

O'QISH SAVODXONLIGI VA ONA TILI FANLARI INTEGRATSIYASI ASOSIDA VATANPARVARLIK TARBIIYASINI SHAKLLANTIRISH

Shavazova Nilufar Musayevna

Samarqand davlat pedagogika instituti

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti

“Boshlang'ich ta'lim” kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: *maqola boshlang'ich ta'limda o'qish savodxonligi va ona tili fanlari integratsiyasi asosida o'quvchilarda vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirish masalasiga bag'ishlangan. Unda “Vatan madhi dillarda” bo'limi orqali bolalarda Vatan ramzlari, tarixiy qadriyatlar va milliy g'urur hissini uyg'otishning ahamiyati ta'kidlanadi. Fanlararo integratsiya yondashuvi o'quvchilarning bilimlarini turli fanlar (tarix, musiqa, tasviriy san'at, ona tili) orqali uyg'unlashtirib, ularning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Maqolada integratsiyalashning vertikal va gorizontall uslublari, shuningdek, zamonaviy metodik yondashuvlarning samaradorligi ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *boshlang'ich ta'lim, o'qish savodxonligi, vatanparvarlik, fanlar integratsiyasi, milliy g'urur.*

ФОРМИРОВАНИЕ ПАТРИОТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАЦИИ ПРЕДМЕТОВ ЧИТАТЕЛЬСКОЙ ГРАМОТНОСТИ И РОДНОГО ЯЗЫКА

Шавазова Нилуфар Мусаевна

Самаркандский государственный педагогический институт

Факультет дошкольного и начального образования

Преподаватель кафедры «Начальное образование»

Аннотация: статья посвящена проблеме формирования патриотического воспитания учащихся на основе интеграции предметов читательской грамотности и родного языка в начальном образовании. Подчеркивается важность воспитания у детей чувства национальной символики, исторических ценностей и национальной гордости через раздел «Гимн Родине». Междисциплинарный интеграционный подход объединяет знания студентов по разным дисциплинам (история, музыка, изобразительное искусство, родной язык) и способствует развитию их творческих навыков и критического мышления. В статье рассматриваются методы вертикальной и горизонтальной интеграции, а также эффективность современных методических подходов.

Ключевые слова: начальное образование, грамотность чтения, патриотизм, интеграция дисциплин, национальная гордость.

FORMATION OF PATRIOTISM EDUCATION ON THE BASIS OF INTEGRATION OF READING LITERACY AND MOTHER LANGUAGE SUBJECTS

Shavazova Nilufar Musayevna

Samarkand State Pedagogical Institute

Faculty of Preschool and Primary Education

Teacher of the Department of "Primary Education"

Abstract: the article is devoted to the issue of forming patriotic education in students on the basis of integration of reading literacy and mother tongue

subjects in primary education. It emphasizes the importance of instilling in children the symbols of the Motherland, historical values, and a sense of national pride through the section “Anthem of the Motherland”. The interdisciplinary integration approach serves to combine students' knowledge through various subjects (history, music, fine arts, mother tongue) and develop their creative and critical thinking skills. The article examines vertical and horizontal methods of integration, as well as the effectiveness of modern methodological approaches.

Keywords: *primary education, reading literacy, patriotism, integration of disciplines, national pride.*

Boshlang‘ich ta‘lim bosqichi o‘quvchining nafaqat savodxonlik darajasini shakllantirish, balki uning ma‘naviy, axloqiy va estetik tarbiyasini yo‘lga qo‘yishda hal qiluvchi bosqich hisoblanadi. Ayniqsa, o‘qish savodxonligi darslari bolalarda fikrlash, ifoda qilish, tushunish va mushohada yuritish ko‘nikmalarini shakllantirishda asosiy vositadir. Shu bilan birga, o‘qilgan matnlar orqali o‘quvchining dunyoqarashi kengayadi, ijtimoiy hayotga bo‘lgan qarashlari shakllanadi, milliy qadriyatlarga e‘tibor ortadi. “Vatan madhi dillarda” bo‘limida o‘quvchilarga Vatan, uning ramzlari, qadriyatlari, tarixiy yodgorliklari, buyuk ajdodlari va tabiat manzaralari haqida o‘qish orqali ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mumkin. Biroq bu mazmunni chuqurroq singdirish uchun fanlararo integratsiya yondashuvi zarur. Integratsiya — bu o‘quvchilarning bilimini bir necha fandan olingan tushunchalar orqali uyg‘unlashtirib, mukammal tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladigan pedagogik jarayondir.

Masalan:

- o'qish savodxonligi fanida “Vatan haqida she'r” o'qilganda, u bilan bir qatorda:
- tarix fanida o'sha she'rda tilga olingan shaxs yoki voqea haqida qo'shimcha ma'lumot beriladi;
- tasviriy san'at darsida Vatan manzarasi chiziladi;
- musiqa darsida esa madhiyamiz kuylandi;
- ona tili fanida she'riy vositalar tahlil qilinadi.

Bu uslub orqali o'quvchi o'rganayotgan mavzusini turli burchaklardan ko'ra oladi, uni faqat matn darajasida emas, balki hayotiy hodisa, voqea, san'at asari sifatida anglaydi. Natijada o'quvchida Vatanga nisbatan chuqur hurmat, g'urur va muhabbat hissi shakllanadi. Shuningdek, fanlararo integratsiya orqali o'qish savodxonligi darslari yanada mazmunli, qiziqarli va faol ishtirokga boy bo'ladi. O'quvchilar darsda nafaqat o'qiydi, balki tasvirlaydi, kuylaydi, taqqoslaydi, tahlil qiladi — bu esa ularning ijodkorlik va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.¹

Xulosa sifatida aytish mumkinki, o'qish savodxonligi va vatanparvarlik tarbiyasini fanlar integratsiyasi asosida olib borish nafaqat bilim, balki tarbiya va tafakkurning uzviy uyg'unligiga xizmat qiladi. Bu esa boshlang'ich sinf o'quvchilarini ongli, ma'naviyatli va vatanparvar shaxs sifatida shakllantirishda muhim omil sanaladi. Hozirgi kunda jamiyatimizning har bir sohasida eng ko'p qo'llanilayotgan atama bu – integratsiyadir. Shu qatorida ta'limni integratsiylashga oid ko'plab ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda Integratsiya jarayoni orqali kichik maktab o'quvchilari olamni bir butunligicha qabul qilish bilan

¹ O'zbekiston Respublikasi “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni, 2020-yil.

xarakterlanadi. Ularning aqliy salohiyati, dunyoqarashini boshlang'ich ta'limdanoq kelajakka raqobatbardosh, o'tkir zehnlilik qilib tarbiyalash integratsiyaning asosiy funksiyasi hisoblanadi. Birinchi navbatda, fanlararo aloqadorlikni yo'lga qo'yish uchun qaysi darslarning bir biriga mos kelishini aniqlash lozim. Tushunchalarning, ma'lumotlarning mazmuni o'zaro yaqinligi va mantiqiy aloqalariga qarab integratsiyalash jarayoni amalga oshiriladi. Integratsiyalash jarayonida dars va darsliklar orasida vertikal va gorizontallik yo'nalishlarda mos tushushini aniqlash juda muhim hisoblanadi. Darsliklar asosida integratsiyalashning vertikal uslubi o'quvchi bir tushuncha o'rganib bo'ldi, keyinroq boshqa fanda shu tushunchaga mos bo'lgan atamaga duch kelsa, ma'lumot sifatida oldin o'rganilgan tushuncha yodga olinadi va bu tushuncha bilan birlashtiriladi. Natijada, ma'lumotlar bazasi kengayadi, o'quvchilar bilimlarni aniqroq va puxtarroq egallaydi. Gorizontallik yo'nalishda integratsiyalash ma'lum bir kichik davr oralig'ida bir tushunchaning ko'plab variantlari bilan ishlash jarayoni tushuniladi. Zamonaviy metodikada o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishga ko'maklashuvchi eng sodda va eng samarador yo'li tanlab olinadi. Ma'lumotlarni integratsiyash zamonaviy metodikaning asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan darslarni amaliyotda qo'llash. 3-sinfda integratsiyalashgan dars (matematika+tabiatshunoslik) fragmenti Darsning mavzusi: Harakatga doir masala. O'qituvchi:- keling,ko'phadli sonlarni eslaylik. Daftaringizga quyidagi sonlarni yozing: 40204506,326925,150000000,32482. Sonlarni ortib borish tartibida o'qing. Eng katta sonni o'qing. Bunday katta son nimani bildirish mumkin(bolalar o'z taxminlarini aytadilar). O'qituvchi: - bu son yerdan quyoshgacha bo'lgan masofani bildiradi.Bu juda katta km lar soni,uni tasavvur qilish qiyin. Agar biz



quyoshga aravada boradigan bo'lsak, bizga 500 yil kerak bo'lar edi. Bu necha asrga teng? Bolalar: - 5 asrga. O'qituvchi: - odamlar avtomobilni ixtiro qildilar. Endi bu yo'lni bosib o'tish uchun 5 marta kam vaqt kerak bo'ladi. Bu qancha? B: 100 yil. n, "qish", "sovuq", "bo'ron", kabi tushunchalar o'qish, rus tili, tabiatshunoslik, musiqa, tasviriy san'at darslarida ko'rib chiqiladi. Tushunchalarning tahlil qilinishi boshqa o'quv darslarida o'zlashtirilgan bilimlarga murojaat qilinadigan darslar integratsiyalangan hisoblanadi. Dars ijodiy, erkin bo'lishi bilan birga, yaxlit, mantiqan ketma-ket, o'ziga xos o'tish metodologiyasiga ega bo'ladi. Umumiy ta'limning poydevorini qo'yadigan boshlang'ich maktabdagi ko'p tushunchalar tabiatshunoslik, rus tili, musiqa, tasviriy san'at va boshqalar uchun umumiydir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida fikrlash qobiliyatining har xil turlarini shakllantirish integratsiyaning negizi hisoblanadi. Asosiy fanlarni o'zlashtirish va olamdagi bor narsalar qonuniyatlarini tushunishda predmetlar ichidag va predmetlararo aloqalarini o'rnatish ta'limni integratsiyalashga yondashuvning metodik asosidir.² O'qituvchi dars jarayonida inobatga olishi kerak bo'lgan vazifalar: 1. Vaqtdan unumli foydalanish kerak; 2. Fanlarning o'zaro bir -biri bilan bog'ligiga ahamiyat berish zarur; 3. Integratsiya darslari aynan o'quvchilarda o'z natijasini ko'rsatyotganligini tahlil qilish lozim; 4. O'qituvchining o'z ustida ishlashi(rivojlanishi); 5. O'quvchilarning psixologik xususiyatlarini inobatga olish zarurligi 6. Yosh xususiyatlariga alohida e'tibor berishi lozim; 7. O'quvchilarning qiziqishlariga o'qituvchi ahamiyat berishi kerak; 8. O'qituvchi fikrlash qobiliyatini rivojlantirishi, yangilik yaratishga moyil bo'lishi kerak; 9. Har bir dars muayyan yo'naltirilgan maqsadga ega bo'lishi lozim; 10. O'qituvchi darsga bir kun oldindan

² Raxmonov A. va boshqalar. "Boshlang'ich ta'limda fanlararo integratsiya", – Toshkent: "O'qituvchi", 2022.

tayyorgarlik ko'rishi kerak; 11. O'qituvchi integratsiya darslarida metodlardan foydalanishni bilishi shart; 12. Darsni qiziqarli qilib tashkillashtirish zarur; 13. Sinfidagi o'quvchilar faolligini oshirish uchun har bitta o'quvchining dars jarayoniga qatnashishini inobatga olish kerak; 14. Integratsiyalashgan darslarni tashkil etish uchun qo'yiladigan talablar integratsiya uchun mos kelishini aniqlash kerak.

Bugungi globallashuv va axborot oqimi kuchaygan davrda yosh avlod qalbida Vatanga muhabbat, sadoqat, milliy g'urur va o'zlikni anglash hissini shakllantirish dolzarb vazifadir. Ayniqsa, boshlang'ich sinf davrida berilgan ma'naviy tarbiya, o'quvchining butun hayotiga ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan "Vatan madhi dillarda" bo'limi bolalarda Vatanga bo'lgan tuyg'ularni uyg'otish, uning buyukligi, tarixiy o'tmishi, ramzlari va qadriyatlari haqida mushohada yuritish, ularni anglab yetishga yo'naltirilgan muhim vosita sanaladi. Ushbu bo'limni fanlar integratsiyasi asosida o'qitish orqali o'quvchilarda bilimlarni turli nuqtai nazardan chuqurroq anglash imkoniyati yaratiladi. Adabiyot orqali Vatanni madh etuvchi she'r va hikoyalarni o'rganish, musiqa orqali madhiyani iftixor bilan kuylash, tasviriy san'atda bayroq, gerb va Vatan manzaralarini tasvirlash, tarix orqali buyuk ajdodlarimiz hayoti bilan tanishish – bularning barchasi o'quvchining qalbida yuksak ma'naviyat va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantiradi. Fanlararo integratsiyalashgan yondashuv orqali o'quvchilar nafaqat bilim oladi, balki hayotga tadbiq etiladigan ijtimoiy, axloqiy, estetik qarashlarni ham o'zlashtiradi. Bu esa o'z navbatida shaxs kamoloti va barkamol avlod tarbiyasiga zamin yaratadi. Shunday qilib, mazkur kurs ishida taklif etilgan metodik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashgan o'quv faoliyati

boshlang'ich sinf o'quvchilarining Vatanga bo'lgan munosabatini shakllantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Ular orqali o'quvchilar Vatan ramzlarini sevish, ardoqlash va himoya qilish tuyg'ularini qalbiga singdiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, 2020-yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, 2020-yil.
3. 3-sinf “O‘qish savodxonligi” darsligi. – Toshkent: “Yangiyo‘l poligraf servis”, 2023.
4. Raxmonov A. va boshqalar. “Boshlang‘ich ta’limda fanlararo integratsiya”, – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2022.